

MILLIY QADRIYATLARNING SHAXS TARBIIYASIDAGI TA’SIRI HAQIDA SHARQ
MUTAFAKKIRLARINING FIKRLARI

Umarova Mashhura Muhammadodilovna

*Farg‘ona ko‘p tarmoqli texnikumi.**Uslubchi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy qadriyatlarining shaxs tarbiyasidagi ta’siri haqida sharq mutafakkirlarining fikrlari ilmiy ma’lumotlar bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Qasriyat, meros, tarbiya usuli, ma’naviyat, axloq, shaxs*

Har bir xalqning madaniyati va ma’naviyati umuminsoniy qadriyatlar bilan naqadar bog‘liq bo‘lganligi, yning jahon sivilizasiyasi tarixiga qo‘shgan hissasi va tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Nafaqat sharqda, balki, butun jahonda qadimiy elatlardan biri hisoblangan o‘zbek xalqining milliy madaniyati uzoq tarixiy davrni qamrab oladi. Avlod va ajdodlarimiz yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya’ni xalq og‘zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Spitamen, Muqanna va Jaloliddin Manguberdi to‘g‘risidagi asarlarda, Alpomish, To‘maris va Shiroq to‘g‘risidagi afsona va dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoyilik kabi ko‘plab umuminsoniy qadriyatlar tasvirlangan. Ma’naviy merosimizning yorqin namunasi

– “Avesto” zardushtiylikning muqaddas kitobi bo‘lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi, qadrlash mezonlari, o’sha davrdagi milliy g‘oyalar yorqin ifodalangan. Qadrlash to‘g‘risidagi qarashlar rivojida VIII-XII asrlar katta ahamiyatga ega. Bu davrda arab istilosi amalga oshirilgan, islom hukmron dinga aylangan edi. E’tirof etish kerakki, Qur’on va Hadislarda ta’riflab berilgan ilohiy qadriyat va qadrlash masalalari xalqimiz tarixi va madaniyatiga ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, arab istilosi davrida ko‘pgina milliy qadriyatlarimizning yo‘qotib yuborilganligini ham qayd qilmoq kerak. Bu to‘g‘risida Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida afsus bilan yozib qoldirgan. Sivilizatsiyamiz qadriyatlari va xalqimizga xos qadrlash me’yorlari musulmon Sharqi va arablar dunyosi madaniyatining rivojiga ham nihoyatda katta aks ta’sir ko‘rsatgan. Tarixda nomlari saqlangan allomalimiz o‘z navbatida butun jahon, Sharq madaniyatiga g‘oyat katta hissa qo‘shganlar. Bunday fikrni Abu Hanifa, al-Buxoriy, at-Termiziy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari to‘g‘risida ham aytish joiz. Ularning har biri o‘z zamonasida islomni sivilizatsiyamizning yuksak madaniyati nuqtayi nazaridan targ‘ib va tashviq etdilar, islom falsafasini yuksaklikka ko‘tardilar, mazkur dinning butun jahonda katta mavqega ega bo‘lishida muhim faoliyat ko‘rsatdilar va shu orqali milliy madaniyatimiz, insoniy fazilatlar hamda axloqiy sifatlar rivojiga ulkan hissa qo‘shdilar. Bizning madaniyatimiz, milliy

qadriyatlarimiz butun insoniyatni o'ziga rom etib kelayotgan markaz bo'lib qolganligi tasodif emas. Milliy qadriyatlarimizda bilim va bilimdonlik juda ulug'lanadi. Bilim va zakovatning qadr-qimmati, jamiyat taraqqiyoti, shaxsning madaniy-ma'naviy, axloqiy kamoloti uchun ahamiyati haqida qanchadan-qancha kitoblar bitilganini, rivoyatlar aytilganini, maqollar to'qilganini hammamiz juda yaxshi bilamiz. Bilim eng katta boylik ekanligi, dunyoda undan qadrliroq narsa yo'qligi to'g'risida Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", "Ro'shnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat", Alisher Navoiyning "Xamsa" kabi mashhur asarlarida bir-biridan muhim, bir-biridan sermazmun fikrlar bayon etilgan⁷. Bizning madaniyatimiz va tariximizda insonni ilm asoslarini bilib olishga da'vat etmagan, bilimning xosiyati haqida kuyib-yonib so'zlamagan bironta shoir va yozuvchi, bironta olim bo'lmagan. Buning uchun loaqal Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning, Abu Nasr Forobiyning, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning muborak nomlarini eslashning o'zi kifoya qiladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi munosabati bilan ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyoti yangi bosqichiga ko'tarildi. Yangi demokratik jamiyatni barpo qilishning muhim omili hisoblangan umuminsoniy va umumbashariy qadriyatlarga hamda milliy an'analar rivojiga keng imkoniyatlar ochib berildi. Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda tarbiya borasida to'plangan tarbiya uslublari kamol topayotgan yosh avlod ta'limi hamda tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. O'zbek xalqi barcha sharq xalqlari kabi yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga juda katta ahamiyat bergan. Bu an'ana avloddan - avlodga, xalq donishmandligining timsoli sifatida o'tib kelgan va milliy madaniyatimizda o'ziga xos o'rin tutadi. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida ta'lim-tarbiya masalalari muhim o'rinni egallaydi. Ayniqsa, ular yoshlarni oilaviy qadriyatlar asosida tarbiyalashga katta e'tibor berganlar. Qolaversa, sharqda shunday diniy-tasavvufiy asarlar ham mavjudki, ularda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari ilgari surilgan bo'lib, ular ma'naviyatimiz tarixida munosib o'rinni egallaydi. Ayniqsa, Sayyid Muhammad ibn Sayyid Bahovuddin Naqshbandiyning ta'lim- tarbiya haqidagi fikr-mulohazalari va pand-u nasihatlarini g'oyat qimmatlidir. Bahovuddin Naqshbandiy barkamol insonni tarbiyalashni dastlab odobdan boshlanishini ta'kidlab, shunday degan edi. "Adab xulqini chiroyli qilish, so'z va fe'lni soz qilishdir. Adab saqlash–muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug'i hamdir. Agar adabdan ozgina nuqsonga yo'l qo'ysang ham, nimaiki qilmagin, beadablik ko'rinadi. Odam o'zini bir xil sifat va ko'rinishda olib yurishi lozim, toki odamlarda unga ta'sir qilish ta'masi paydo bo'lmagan bo'lsin". Naqshbandiy do'stlik va o'rtoqlikka katta e'tibor bergan va agar do'st aybiga boqsangiz, do'stsiz qolasiz, hech kim dunyoda beayb emas, degan purhikmat satrlarni qoldirib ketgan. Sharq mutafakkirlari o'z zamonasidayoq yosh avlod tarbiyasining ijtimoiy shart-sharoit bilan bog'liq ekanligini, bu vaziyatning o'zgartirilishi uning tarbiyasiga ta'sir qilishi tabiiydir,-degan xulosaga kelishgan.

Barkamol insonni tarbiyalashda milliy merosimiz, shu jumladan, tarixiy manbalar va adabiyotning o'rnini beqiyosdir. O'sib kelayotgan yosh avlodda axloq- odob, mehr-oqibat, xayru-saxovat, sharmu-hayo, halollik va pokizalik, oriyatlik kabi xususiyatlarni shakllantirishda milliy adabiyotimiz, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda ma'rifatparvar allomalarimizning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalari o'zbek xalqining ma'naviyat va ma'rifatini, milliy qadriyatlar va ongini yuksaltirish yo'lida xizmat qilib, avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalab kelmoqda. Yoshlarimizning har biri bunday fidoyi, vatanparvar, ziyoli siymolarni yaxshi bilishlari va unutmashliklari kerak.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev kelgusida yoshlarning buyuk ajdodlarimizning bebaho merosi ruhida, sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalanishini

maqsad qilgan holda o'zlarining nutqlaridan birida shunday degan edilar: "Sizlarga yaxshi ayonki, mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida dinimiz, ravnaqi yo'lida beqiyos xizmat qilgan buyuk aziz-avliyolar, alloma zotlar xotirasiga barpo etilgan yodgorlik majmualari, ilmiy markazlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning qoshida islom dinining alohida yo'nalishlari bo'yicha ilm olishga, mutaxassis bo'lishga tayyorlab boradigan ilmiy maktablar tashkil etsak, nima deysizlar? Masalan, Samarqandda – Imom Buxoriy ilmiy markazida hadisshunoslik, Imom Moturidiy markazi qoshida kalom ilmi, Farg'onada – Marg'inoniy ilmiy markazida islom huquqi maktabi, Buxoroda – Bahouddin Naqshband markazida tasavvuf, Qashqadaryoda – Abu Muin Nasafiy markazida aqida ilmi maktabini tashkil etsak, o'ylaymanki, bu juda foydali bo'ladi".

Shuningdek, o'zbek psixolog olimlari tomonidan ham etnopsixologik muammolarga bag'ishlangan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, V.M.Karimova, Z.T.Nishanova, Sh.R.Baratov, M.M.Mamatov, N.S.Safayev, A.M.Jabborov, I.I.Maxmudov, B.M.Botirov, F.S.Tatibayeva kabi olimlar va tadqiqotchilar etnik qadriyat genezisi, vazifalari va tuzilishi bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq muammolarni chuqur o'rgangan. M.G.Davletshin va E.G'.G'oziyev mamlakatimizda etnopsixologiyaning rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni, M.M.Mamatov va N.S.Safayevlar etnik va milliy o'zlikni anglash muammolarini, B.M. Botirov o'zbek milliy xarakteri shakllanishiga qadriyatlar ta'sirining psixologik xususiyatlarini, F.S.Tatibayeva ijtimoiylashuv jarayonida etnik stereotiplarning shaxsga ta'sirini, I.I.Mahmudov xulq-atvorning etnik stereotiplarini, shuningdek, sotsiolog olim S.S.Otamurotov O'zbekiston mustaqilligi sharoitida ijtimoiy faol yoshlarda milliy o'zlikni anglash masalalarini tadqiq qilgan bo'lsa, M.Salayeva o'zbek oilasining regional hamda etnopsixologik tafovutlarini, V.M.Karimova yosh yigit va qizlarning o'zbek oilasi xususidagi ijtimoiy tasavvurlarini, O.B.Muxammadberdiyev O'rta Osiyo xalqlarining zamonaviy taraqqiyot bosqichidagi o'zlikni anglash

masalalarini o'rganganlar. Xususan, A.Begmatov o'zbek xalqi xususiyatlari rivojlanishini ikki bosqichga ajratadi. Birinchi bosqich IX-XV asrlarga to'g'ri kelib, mazkur

bosqichda xalqimiz o'z ijobiy jihatlari bilan dunyoga yuz tutgan ekan. Ikkinchi bosqich XVI-XIX asrlarga to'g'ri kelib, unda milliy qadriyatda loqaydlik, hasad, xudbinlik kabi sifatlar yetakchilik qilgan ekan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, islom olamining muqaddas kitoblari Qur'oni Karimdan, Muhammad alayhissalom o'g'itlari, hadislaridan va Sharq mutafakkirlarining bir qator asarlaridan bola tarbiyasi, ma'naviyati, bolalar va yoshlarni yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalashda hamda shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rnini o'rganishga doir juda ko'plab qimmatli psixologik– pedagogik qarashlarni, maslahat va fikrlarni olish mumkin. Biz o'z milliyligimizni yo'qotmay, yni davr ruhida rivojlantirib borishimiz, ham umumjahon taraqqiyotidan orqada qolmay zamona bilan teng qadam tashlab ilgarilab bormog'imiz kerak. Bugungi mustaqillik sharoitida biz milliy tarbiyaga jiddiy e'tibor qaratishimiz, buning uchun jahondagi ilg'or yutuqlarni nazardan qochirmagan holda ajdodlarimiz merosida o'z aksini topgan qadriyatlarni bygyngi yosh avlod tarbiyasiga tatbiq etishga jiddiy kirishmog'imiz millat va kelajak oldidagi burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.
2. X.Aliqulov. Sharq mutafakkirlari axloq haqida. T.: 1997.
3. Sh.T.Qo'ldoshev-“Milliy qadriyatlar va transformatsion jarayonlar”.O'quv qo'llanma-Toshkent: 2015 yil.